



**KRIPTOVALYUTA
ALIFBOSI**

by  **BINANCE**




Copyright © 2025 Binance

Binance hamjamiyati va ertangi
kun bunyodkorlariga

Bu kitob “Nima uchun?” deb soʻrashni yaxshi
koʻradigan va “Qanday qilib?” deb oʻrganishni
xohlaydigan har bir kishiga – katta yoki
kichikka moʻljallangan.

Umid qilamizki, har bir sahifa sizga yangi
gʻoyalarni kashf etish, yangi narsalarni sinab
koʻrish va imkoniyatlar toʻla dunyoni tasavvur
qilishga yordam beradi.

Tashakkur va samimiy tabassum bilan,
Binance'dagi do'stlaringiz





IS FOR

ALTCOINS

ALTKOINLAR UCHUN

Bitcoin birinchi bo'lgan, ammo u yolg'iz emas. Altkoinlar – bu boshqa barcha kriptotokenlar bo'lib, ularning har biri o'z uslubi va g'oyalariga ega. Ularning yordamida kriptodunyo o'sishda, sinalishda davom etadi va yangi narsalar sinovdan o'tadi.






IS FOR
BITCOIN
BITKoin UCHUN

Bitkoin birinchi va eng mashhur kriptoaktivdir. Bu raqamli pul bo'lib, hech qanday bank yoki rahbarga ega emas. Faqat cheklangan miqdor mavjud bo'ladi – shuning uchun ba'zilar uni “raqamli oltin” deb atashadi.





IS FOR

CRYPTO

KRIPTOVALYUTA (CRYPTO) UCHUN


Kriptoalyuta – bu internet uchun yaratilgan pul. U “blokcheyn” deb nomlangan texnologiya asosida yaratilgan va kod bilan himoyalangan. Kripto yordamida odamlar istalgan vaqtda va istalgan joyda qiymatni ulashishlari mumkin.






IS FOR
DYOR
DYOR UCHUN

DYOR “Mustaqil tadqiq qiling” degan ma’noni anglatadi.
Kriptoda bu juda muhim. Qo’shilishdan oldin loyiha,
jamo va xavf-xatarlar haqida bilib oling.






IS FOR

EXCHANGES

BIRJALAR (EXCHANGE) UCHUN

Birjalar bu odamlar kriptovalyuta sotib oladigan va sotadigan joylar. Binance dunyo bo'ylab foydalanuvchilarga ega bo'lgan eng yirik birjalardan biridir. U odamlarga tokenlar bilan xavfsiz va oson savdo qilishga yordam beradi.





IS FOR
FIAT
FIAT UCHUN

Fiat bu dollar, yevro yoki peso kabi hukumatlar tomonidan chiqariladigan va har kuni ishlatiladigan an'anaviy pullar. Kriptovalyuta global va hamma uchun ochiq. U banklar yoki chegaralarga tayanmaydi.





IS FOR

GATEWAY

SHLYUZ (GATEWAY) UCHUN

Shlyuz bu odamlar yoki aktivlarga blokcheyn olamiga kirishga yordam beradigan “eshik”.

Binance millionlab odamlar uchun kriptovalyutalarga kirish eshigi bo'lib xizmat qiladi.



H


IS FOR

HODL

HOLD UCHUN

Bitkoin birinchi va eng mashhur kriptoaktivdir. Bu raqamli pul bo'lib, hech qanday bank yoki rahbarga ega emas. Faqat cheklangan miqdor mavjud bo'ladi – shuning uchun ba'zilar uni “raqamli oltin” deb atashadi.






IS FOR

INNOVATION

INNOVATSIYA UCHUN

Innovatsiya biror narsani amalga oshirishning yangi va yaxshiroq usulini topish demakdir. Kriptovalyuta dunyosi yangi g'oyalarga to'la. U pul, san'at, moda va hatto sport haqidagi fikrlarimizni o'zgartirmoqda. U odamlarga har kim foydalanishi va ishonishi mumkin bo'lgan yangi tizimlarni yaratishga yordam beradi.





IS FOR
JARGON
JARGON UCHUN

Jargon deganda faqat ma'lum guruh odamlargina tushunadigan maxsus so'zlar tushuniladi. Kriptoning o'z tili bor — HODL, GM va WAGMI kabi. Avvaliga g'alati tuyulishi mumkin, lekin tilni o'rganganingizdan keyin o'zingizni jamoaning bir qismi deb his qilasiz.






IS FOR

KYC

MIJOZNI TASDIQLASH (KYC) UCHUN

KYC – “Mijozni tasdiqlash” degan ma’noni anglatadi. Binance kabi birjalar foydalanuvchilardan ID hujjatlarini ulashish orqali kimligini ko’rsatishni so’raydi. Bu barchani xavfsiz saqlashga yordam beradi va platformadan faqat haqiqiy odamlar foydalana olishini ta’minlaydi.





IS FOR


LEVERAGE

KREDIT DASTAGI (LEVERAGE) UCHUN

Kredit dastagi odamlarga aslida mavjud bo'lganidan ko'proq pul bilan savdo qilish imkonini beradi. U katta yutuqlarga yoki katta yo'qotishlarga olib kelishi mumkin.

Bu qiziqarli, ammo juda xavfli... ehtiyot bo'ling!






IS FOR

MEMECOINS

MEM TANGALAR UCHUN

Mem tangalar DOGE yoki PEPE kabi qiziqarli, bema'ni tokenlardir. Ular ko'pincha hazil sifatida boshlanadi, lekin ba'zida juda tez o'sadi! Shunga qaramay, ko'plari tezda yo'qoladi, shuning uchun ehtiyot bo'ling.




N

IS FOR

NFT

NFT UCHUN

NFT yoki takrorlanmas tokenlar san'at, musiqa yoki hatto o'yindagi joy kabi raqamli narsaga egaligingizni isbotlaydi. Ular blokcheynda yashaydi, shuning uchun hech kim ularni soxtalashtira olmaydi. Ularni ajoyib narsalarning raqamli kvitansiyalari deb hisoblang.





IS FOR
ON-CHAIN
ONCHEYN UCHUN

Oncheyn blokcheynda nimadir to'g'ridan-to'g'ri
sodir bo'lishini anglatadi. U aniq, ochiq va
o'zgartirib bo'lmaydigan tarzda qayd etiladi.
Nima sodir bo'lganini hamma ko'rishi mumkin.





IS FOR

PRIVATE KEYS

MAXFIY KALITLAR (PRIVATE KEYS) UCHUN

Maxfiy kalitlar – bu kripto hamyoningizni ochadigan maxfiy so'zlardir. Agar ularni yo'qotsangiz, kriptovalyutangiz butunlay yo'qoladi. Shunday ekan, ularni yozib oling va yashirib qo'ying!






IS FOR

QUESTIONS

SAVOLLAR (QUESTIONS) UCHUN

Savollar – bu kriptovalyuta olamida saqlab qolishingiz kerak bo'lgan qiziquvchan fikrlash tarzining mahsulidir. Kriptoolam shov-shuvga to'la, shuning uchun doim savollar bering. Uni kim yaratgan? U nima qiladi? Bu haqiqiymi yoki shunchaki shovqinmi? Savollar sizga yanada aqlli tanlov qilish va boshqalar nimani o'tkazib yuborayotganini ko'rishga yordam beradi.





IS FOR

REAL-WORLD ASSETS

REAL DUNYO AKTIVLARI (RWA) UCHUN

Real dunyo aktivlar uylar, san'at yoki oltin kabi narsalarni anglatadi. Endi bu real narsalar kriptoga bog'lanishi va blokcheynda yashovchi tokenlarga aylantirilishi mumkin.






IS FOR

SATOSHI NAKAMOTO

SATOSHI NAKAMOTO UCHUN

Satoshi Nakamoto 2009-yilda boshlangan Bitkoinning sirli yaratuvchisidir. Hech kim uni biror kishi yoki guruh ekanligini bilmaydi. Ammo uning g'oyasi bizning pul haqidagi fikrlarimizni butunlay o'zgartirib yubordi.






IS FOR

TOKENOMICS

TOKEN IQTISODIYOTI UCHUN

Token iqtisodiyoti kriptotoken qanday ishlashini tushuntiradi. Ular nechta? Ular nima uchun kerak? Ularga kim egalik qiladi? Yaxshi token iqtisodiyoti loyihaning mustahkam va adolatli bo'lishiga yordam beradi.





IS FOR

UTILITY

FOYDALILIK (UTILITY) UCHUN

Foydalilik tokenni shunchaki savdo qilish uchun emas, balki biror narsa uchun ishlatish mumkinligini anglatadi. U xizmatlarga haq to'lashi, kirishni ochishi yoki loyihada ovoz berish huquqini berishi mumkin. Foydali tokenlar shunchaki kutib o'tirish uchun emas, balki ish bajarish uchun mo'ljallangan.






IS FOR

VOLATILITY

BEQARORLIK (VOLATILITY) UCHUN

Beqarorlik biror narsaning qanchalik tez va tez o'zgarishini anglatadi, xuddi yuqoriga, pastga, hamma yo'nalishda tez o'zgaradigan kriptovalyuta narxlari kabi! Bu hayajonli, ammo xavfli ham – shuning uchun his-tuyg'ularga erk bermang.





IS FOR

WALLETS

HAMYONLAR (WALLETS) UCHUN

Kriptovalyutangiz hamyonlarda saqlanadi. Issiq hamyonlar onlayn bo'lib, ularni ishlatish oson. Sovuq hamyonlar oflayn va xavfsiz hisoblanadi. Maxfiy kalitlaringizni xavfsiz saqlang!






IS FOR



X UCHUN


X (sobiq Twitter) – bu kriptodunyo bog'lanadigan joy. U yangiliklar, memlar va katta g'oyalarga to'la. Bu shovqinli, lekin diqqat bilan tinglasangiz, ko'p narsani bilib olasiz.



IS FOR
YOLO
YOLO UCHUN

YOLO “Siz faqat bir marta yashaysiz” degan ma’noni anglatadi. Ba’zi odamlar riks qilib, savdolarida bor kuchini ishga soladi. Ba’zida ular g’alaba qozonadi, ba’zida esa katta miqdorda yutqazadi. Shunday ekan, hech qachon qurbingiz yetadiganidan ko’proq darajada risk qilmang.





IS FOR

CZ

CZ UCHUN

CZ dunyodagi eng yirik kripto kompaniyalaridan biri bo'lgan Binance kompaniyasiga asos solgan. Garchi u endi Binance bilan birga bo'lmasa-da, u kriptovalyuta kelajagini shakllantirishda davom etmoqda, hamma joyda odamlarga kriptobilimlarni yetkazishga yordam bermoqda.



ABC's

KRIPTOVALYUTA ALIFBOSI

by  BINANCE

OGHOHLANTIRISH:

Bu kitob faqat ta'lim va ko'ngilochar maqsadlar uchun mo'ljallanganini yodda tuting. U o'quvchilarni blokcheyn va raqamli aktivlar bilan bog'liq asosiy tushunchalar bilan soddalashtirilgan tarzda tanishtirish uchun mo'ljallangan.
Bu material faqat Binance va uning aloqador hamjamiyatlarida ichki va ta'lim maqsadlarida foydalanish uchun mo'ljallangan. Bu tijorat maqsadida nashr etilgan kitob emas va ommaviy tarqatish yoki sotish uchun mo'ljallanmagan.

Barcha kontent har qanday investitsiya qarorini qabul qilish uchun asos bo'lmasiligi yoki har qanday tranzaksiyani amalga oshirish uchun tavsiya sifatida talqin qilinmasligi yoki har qanday investitsiya strategiyasi tavsiyasi sifatida talqin qilinmasligi kerak. Shunga ko'ra, kontent moliyaviy maslahat sifatida talqin qilinmasligi kerak, shuningdek, u ma'lum bir mahsulot yoki xizmatni sotib olishni tavsiya qilish uchun mo'ljallanmagan. Ushbu xabar shaxsiy tavsiya hisoblanmaydi va har qanday tranzaksiya ma'lum bir shaxsga mos kelishi yoki kelmasligini hisobga olmaydi. Bu uchinchi tomon manbalari yoki statistik xizmatlardan olingan ma'lumotlarga tegishli bo'lsa, Binance buning uchun javobgar bo'lmaydi.

Ota-onalar, vasiylar va tarbiyachilarga kitob mazmunini bilan tanishib chiqish va o'z o'xshovlariga ko'ra ushbu kitobni bolalar bilan tegishli tarzda ulashish tavsiya etiladi. Binance ham, uning direktorlari, mansabdor shaxslari, xodimlari, vakillari yoki agentlari ham bu xabar yoki uning mazmunidan foydalanish yoki undagi ma'lumotlarga tayanish natijasida yuzaga keladigan to'g'ridan-to'g'ri, bilvosita yoki oqibatli yiqotishlar (shartnoma, huquqbuzarlik yoki boshqacha tarzda) uchun hech qanday javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

Keyingi manzil: Binance Academy. Qanday qilib kriptovalyuta bilan xavfsiz savdo qilishni o'rganing.